

## O'QUVCHILARNING XORIJIY TOP UNIVERSITETLARGA 100% GRANT ASOSIDA QABUL QILINISHI

**Sabirova Nargiza Salim qizi**

*Farmasevtika-texnik universiteti ingliz tili o'qituvchisi*

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada O'zbekistonda oliy ta'lim sohasida amalga oshirilayotgan islohotlar va ularning natijalari haqida ma'lumot berilgan. Oliy ta'lim muassasalari sonini oshishi, grant o'rinlarining ko'payishi, ta'lim sifatini yaxshilash va xalqaro tajribaga asoslangan takliflar keltirilgan. Maqola, shuningdek, yoshlarni oliy ta'lim bilan qamrab olish darajasining oshishi va ta'lim tizimining raqamlashtirilishi kabi muhim jihatlarni yoritadi. O'zbekistonning ta'lim tizimini rivojlantirishda xalqaro tajribalarni o'rganish va amaliyotga joriy etish zarurligini ta'kidlagan.

**Kalit so'zlar:** Oliy ta'lim, Yangi O'zbekiston, qamrov darajasi, bakalavr, magistratura, islohotlar, ta'lim sifatini oshirish, qamrov darajasi.

Chet elda o'qish shaxsiy o'sish va yuqori darajadagi ta'lim olish uchun ajoyib imkoniyatlarni taqdim etadi. Foydalar - xilma-xil, jumladan, yangi nuqtayi nazarga ega bo'lish, turli madaniyatlar bilan tanishish va til ko'nikmalarini yaxshilash. Chet elda o'qishning afzalliklari va kamchiliklari haqida ushbu maqolamiz orqali batafsil ma'lumotga ega bo'lishingiz mumkin. Biroq xalqaro ta'lim uchun davlat tanlash juda muhimdir. Har bir mamlakatning o'ziga xos ta'lim tizimi, madaniy jihatlari va imkoniyatlari mavjud. Xorijda muvaffaqiyatli o'qish tajribasini ta'minlash uchun akademik yetuklik, narx-navo, til, o'qishdan keyingi ish istiqbollari va shaxsiy imtiyozlar kabi omillarni hisobga olish juda muhimdir. Prezident Shavkat Mirziyoyev 5-may kuni istiqbolli kadrlarni maqsadli tayyorlash va mutaxassislarining xorijda ta'lim olishini qo'llab-quvvatlashga oid takliflar taqdimoti bilan tanishdi. Mamlakatimizda har bir sohani rivojlantirishda kadrlar masalasiga alohida e'tibor qaratilmoqda. Shu maqsadda xalqaro reytinglarda "TOP-100" talik universitetlarga grant asosida o'qishga kirgan nomzodlarga "El-yurt umidi" stipendiyasi imtihonlarsiz ajratilishi belgilandi.

O'zbekistonda oliy ta'lim sohasida keng ko'lamli islohotlar amalga oshirilmoqda, bu islohotlar yoshlarning ta'lim olish imkoniyatlarini kengaytirishga qaratilgan bo'lib pirovardda inson kapitalini rivojlantirish va mamlakat rivojida hal qiluvchi rol o'ynaydi. O'zbekistonda yaqin kelajakda ushbu yo'nalishda asosiy e'tibor oliy ta'lim qamrovini oshirish, ta'lim sifatini yaxshilash va xalqaro standartlarga moslashish kabi yo'nalishlarga qaratilgan. Mamlakatimizda savodxonlik darajasi deyarli 99% ni tashkil etadi, bu universal

ta'limga sarmoya kiritishning natijasi hisoblanadi. Boshlang'ich ta'limdagi qamrov darajasi 2017-yilda UNESCO ma'lumotlariga ko'ra, 98.548% ni tashkil etdi, bu ikkala jins uchun ham qamrovni ko'rsatadi (qizlar uchun 97.723% va o'g'il bolalar uchun 99.332%). Maktabgacha ta'limga kirish ham yaxshilandi: 2013-yilda qishloq hududlarida bu ko'rsatkich 8.5% dan 2019-yilga kelib 28% gacha o'sdi, bu Global Partnership for Education va UNICEF kabi xalqaro hamkorlar tomonidan qo'llab-quvvatlanadi. Oliy ta'lim muassasalari soni va qamrovi: So'nggi yillarda O'zbekistonda oliy o'quv yurtlari soni sezilarli darajada oshdi. Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi ma'lumotlariga ko'ra, oliy o'quv yurtlari soni so'nggi 6 yil ichida 77 tadan 170 taga yetdi, va ularga qabul qariyb 3,5 barobarga ortdi. Oliy ta'limda raqobatni qo'llab-quvvatlash va xususiy sektorni jalb qilish orqali 24 ta xorijiy hamda 27 ta nodavlat oliygohlar tashkil etildi. Yoshlarni oliy ta'lim bilan qamrab olish darajasi 9 foizdan 32 foizga oshirildi. 2023-yilda oliy ta'lim qamrovi 42% ni tashkil etdi, bu 2016-yildagi 9% ko'rsatkichdan deyarli 5 barobar ko'pdir. Bugungi kunda oliy o'quv yurtlarida talabalar soni 1,3 millionni tashkil qiladi. Mamlakatdagi oliy o'quv yurtlari soni 2016 yilda 77 ta bo'lgan bo'lsa, 2023 yilda 213 taga yetdi (ulardan 97 tasi nodavlat yoki xorijiy universitetlar). O'rta ta'limda Prezident maktablari kabi tashabbuslar ajoyib natijalarga erishdi, masalan, 2023/2024 o'quv yilida bitiruvchilarning 100% i xalqaro til malakasini tasdiqlovchi sertifikatlarni oldi va dunyodagi eng yaxshi universitetlarga stipendiyalar bilan qabul qilindi. Janubiy Koreya va Rossiya kabi xorijiy universitetlarning filiallarini joriy qilish ta'lim sifatini oshirdi, COVID-19 pandemiyasi davrida esa raqamli platformalar orqali onlayn ta'lim imkoniyatlari kengaydi. Hukumat ta'limga sarflayotgan xarajatlar davlat byudjetining 20.5% va YaIM ning 4.9% ni tashkil etadi (UNESCO Statistika instituti), bu mintaqaviy o'rtacha ko'rsatkichlardan yuqori. Samarqand davlat universitetida Agrobiotexnologiyalar instituti, Muhandislik instituti va Urgut filiali tashkil etildi. Shuningdek "Yangi O'zbekiston" universitetining tashkil etilganligi iqtidorli yoshlarimiz uchun yaratilgan alohida imkoniyatdir.

Ta'lim sifatini oshirish yo'nalishida oliy ta'lim sohasida vakolatli organ

tomonidan 2024 yilning birinchi yarim yilligida bakalavriat yo'nalishlari uchun TOP-300 ga kiruvchi universitetlar dasturlarini hisobga olgan holda 183 ta malaka talablari ishlab chiqildi va tasdiqlandi. Olti oliy o'quv yurtining 38 ta ta'lim dasturi xalqaro akkreditatsiyadan o'tdi. Ta'lim sohasida olib borilayotgan islohotlarni chuqurlashtirish, ta'lim muassasalari faoliyatini ilg'or xorijiy amaliyotlar asosida tashkil etish maqsadida «Ta'lim sohasidagi loyihalar markazi» loyiha ofisi tashkil etildi. Joriy yilda bakalavriat yo'nalishlari 40%ga optimallashtirildi (306 ta dan 183 taga), magistratura mutaxassisliklari 15% ga (625 ta dan 528 taga) qisqartirildi. Kredit-modul tizimi: 2020-yildan boshlab mamlakatning barcha oliy o'quv yurtlari Yevropaning oliy ta'lim tizimi asosida kredit-

modul tizimiga bosqichma- bosqich o'tmoqda. Bu ta'lim dasturlarining moslashuvchanligini ta'minladi va talabalarga fanlarni tanlash imkoniyatini yaratdi. Kredit-modul tizimini joriy etish talabalarga O'zbekiston universiteti va boshqa davlatlar sherik universiteti diplomlarini olish imkonini beruvchi qo'sh diplom dasturi (Double Degree) amaliyotini faol ravishda kengaytirishga hissa qo'shadi.

#### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. “O‘zbekiston -2030” Strategiyasi
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori, 02.02.2024 yildagi PQ-54-son
3. O'zbekistonda oliy ta'lim tizimidagi islohotlar: Raqobatbardosh kadrlar tayyorlashga qaratilgan. (2024). O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Qonunchilik va Huquqiy siyosat instituti. O'zbekiston.org
4. Oliy ta'lim islohotlari: muammolar, yechimlar, yutuqlar. (2024). Yuz.uz
5. Oliy ta'lim islohotlari: Kengayib borayotgan imkoniyatlar. (2024). Abt.uz
6. Oliy ta'lim islohotlari: muammolar, o'zgarish va yutuqlar. (2023). Parliament.gov.uz